

**XORIJY TILDA GAPIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

Shodmonova Shahrizoda

Samarqand Davlat chet tillari instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi

2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tilda gapirish, muloqot qilish ko'nikmasi ko'rib chiqiladi. Bunga qo'shimcha qilib, so'zlashish jarayonida o'quvchilarning qiziqishini oshirish maqsadida turli xil metodlar aytib o'tiladi va ulardan qanday foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** gapirish, o'rganishga bo'lgan qiziqish, idiomatik ibora, kognitiv faoliyat, kommunikativ mahorat.

Nutq – og'zaki muloqot amalga oshiriladigan murakkab, ko'p qirrali jarayonni o'z ichiga olgan nutq faoliyatining bir turi. So'zlashuv tilini o'rgatish va umuman og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish til o'rgatishning eng murakkab vazifalaridandir. Buning sababi shundaki, inson o'z fikr va his-tuyg'ularini boshqa til orqali mustaqil ravishda ifodalaydi. Nutqni ongli ravishda shakllantirish va til shakllarini tahlil qilish til o'rganishning dastlabki bosqichlariga xosdir. Boshqa til va madaniyat vakillariga o'zbek tilini o'rgatish jarayonida nutqiy ko'nikma nutq faoliyatini tinglash va tushunish malakalari bilan bir vaqtida rivojlantiriladi. Natijada, tilni o'rgatish til va nutq materialini intuitiv (ichki) o'zlashtirishga olib kelishi kerak. Nutq qobiliyatlari ikki xilda, monolog va dialog nutqida namoyon bo'ladi. Maqolada nutqning mexanizmlari, monolog va dialog nutq ko'nikmalarini rivojlantirish xususiyatlari tahlil qilinadi.

**INGLIZ TILIDA TEZ SO'ZLASHISH UCHUN NIMA QILISH LOZIM?**

Ingliz tilida so'zlashish til o'rganuvchilarning asosiy muammosi ekanligi hech kimga sir emas. Ammo bajarilgan amaliyot va to'g'ri tanlangan adabiyotlar yordamida biz kutgan natijalarga erishishimiz mumkin.

1. Ingliz tili darslarida yoki munozara guruhida qatnashing!

So'zlashuvni rivojlantirishda katta yordam beruvchi usullaridan biri – bu turli xil bahslarda qatnashish kerak va uni haftalik rejaga aylantirish lozim. Hozirgi kunda ko'pgina o'quv kurslari tomonidan "Speaking club"lar tashkil etilgan bo'lib, odatda hafta oxirlarida tashkil qilinuvchi qo'shimcha darslar ingliz tilidagi nutqni yaxshilashga yordam beradi.

\*Ingliz tili darslarida odatda rasmiy so'z va iboralarni o'rgatishga asosiy e'tibor berilib, darslarda grammatika qoidalari, gaplarni to'g'ri ketma-ketlikda qo'llash va shu kabi qonuniyatlar o'rgatiladi;

\*So'zlashuv guruhiiga borish esa ingliz tilini o'rganishning norasmiy va erkin usuli bo'lib, bu yerda ingliz tilida "to'g'ri" gapirishdan ko'ra ko'proq aloqa va munosabatlarni

rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.Ushbu muhit bizga boshqa odamlar oldida ingliz tilida erkin va qulay gapira olishimizga yordam beradi;

\*Yuqoridaq ikki turdag'i darslarning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo'lib, ularning ikkalasidan foydalanishimiz, oldinga qo'yilgan maqsadga tezroq yetishga zamin yaratadi.

### 2.Har kuni oz-ozdan gapiring!

Yangi til o'rganishning eng ajoyib usuli – bu shunchaki gapirishdir.Boshqa odam bilan o'rganilayotgan tilda gaplashishga intilish eng samarali rivojlanish usulidir. Biz erkin so'zlasha olishimizni kutib o'tirmasligimiz kerak, balki bu juda ko'p vaqt talab etishi yoki bu kun umuman kelmasligi mumkin.Shuning uchun gapirishni bugundan boshlashimiz lozim.Tez orada biz til ko'nikmalarimizning qanchalik tezlik bilan yaxshilanayotganiga guvoh bo'lamiz.

Ingliz tilida so'zlovchi chet elliklarni topishga harakat qilishimiz lozim.Biz ularga 30 daqiqa biz uchun vaqt ajratishgani uchun, biz ham ularga 30 daqiqa ona tilimizni o'rgatishga taklif qilishimiz mumkin.

Agar biz ingliz tilida so'zlashadigan davlatda yashasak, suhbatni shunchaki sotuvchilarga “salom” deyish yoki notanish odamdan manzilni so'rashdan boshlashimiz mumkin.

### 3.Talaffuz ustida ishlang!

Ehtimol bizda kuchli grammatika va ko'p sonli so'z zaxirasi bo'lishi mumkin,ammo so'zlarni talaffuzida qilinadigan xatolar sabab suhbatdoshimiz bizning gaplarimizni umuman tushuna olmasligi mumkin.

\*To'g'ri, aniq talaffuz til darajasini rivojlantirishning eng muhim tomonlaridan biridir.Ko'proq inglizcha so'zlarni tinglashga harakat qilishimiz lozim va ularni qanday talaffuz qilinayotganiga e'tibor qaratishimiz kerak hamda ularga taqlid qilib, xuddi shunday talaffuz qilishga harakat qilishimiz kerak;

\*Biz uchun notanish bo'lgan yoki tilimizda mavjud bo'lмаган tovushlarga alohida e'tibor berish kerak.Masalan, ba'zi odamlar “r” tovushi ularning ona tilida bo'lмагани uchun, uni talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.Boshqa insonlar esa, “th” tovushi kabi ba'zi undosh tovush guruhlari bilan qiynalishadi;

Dunyoning turli qismlarida ingliz tili talaffuzlari turlicha bo'lib, masalan, Amerika va Britaniyada so'zlarning talaffuzida sezilarli farqlar uchraydi.Agar biz ingliz tilida so'zlashuvchi davlatga sayohat qilish yoki u yerda yashashni rejorashtirayotgan bo'lsak, ma'lum so'zlarni talaffuzini o'rganish jarayonida buni hisobga olishimiz kerak bo'ladi.

### 4.So'z boyligini oshiring va idiomatik iboralarni ishlating!

Lug'atimiz qanchalik keng va unda inglizcha iboralar qanchalik ko'p bo'lsa, ingliz tilida gapirish ham shunchalik osonroq bo'ladi.

Biz yangi so'z yoki iborani o'rganib organimizdan so'ng , ulardan gaplar tuzish va suhbat jarayonida foydalanishga harakat qilishimiz zarur - bu uni xotirada saqlashning eng yaxshi usulidir.

Yangi so‘zlarni xotirada saqlab qolishning yana bir oson usuli – bu kundalik uy-ro‘zg‘or buyumlari uchun yorliqlar tayyorlash va ularni uyimiz va jihoz hamda buyumlarga yopishtirishdir.Natijada, har safar chovgunni ishlatganimizda yoki oynaga qaraganimizda, ularni ingliz tilidagi nomlarini sekin-asta yodlab olishimiz va bu esa ularni ko‘rganda, ular darrov esimizga kelishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, ingliz tilida so‘zlashuvchilar doimo foydalanadigan idiomatik iboralarni lug‘at daftariga yozib borish zarur.Sababi, bunday iboralar so‘zma-so‘z tarjima qilish jarayonida umuman boshqa ma’noni anglatishi mumkin.Masalan, “I feel full of beans today” iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda “Men bugun o‘zimni to‘lgan loviyaday his qildim”degan ma’noni beradi.Aslida esa ibora kuch-quvvatga boy degan ma’noda ishlatiladi.Bunday iboralarni yodlab o‘rganib borish talab etiladi, aks holda bu bizga biror bir narsa o‘qish , tinglash, yoki ko‘rish davomida ko‘plab tushunmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

#### 5.Lug‘at olib yuring!

Har doim yonimizda inglizcha lug‘at olib yurish (bu haqiqiy kitob yoki telefon ilovasi bo‘lsin) biz uchun juda foydali bo‘lishi mumkin.

Ingliz tilida suhbat jarayoni vaqtida biror bir so‘zni unutib qo‘yishimiz mumkin.Yonimizda lug‘at bo‘lsa, bu bizni juda ko‘p xijolatli holatlardan xalos qilishi mumkin – buni qidirish uchun bir necha soniya vaqt kerak bo‘ladi xolos. Noqulayliklardan tashqari u, kerakli so‘zni jumladan qidirish, uni darhol so‘z birikmalarida ishlatishga yordam beradi.

Shunchaki poyezdda o‘tirganimizda, ko‘chani kesib o‘tishni kutayotganda yoki shunchaki bir piyola kofe ichganda lug‘atimiz bo‘lishi juda foydalidir.Ushbu texnikadan foydalanib biz kuniga 20-30 ta qo‘srimcha inglizcha so‘zlarni o‘rganishimiz mumkin.

O‘rganishni endi boshlagan vaqtida, ona tilimizda so‘z ta’riflarni beradigan inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlardan foydalanishga o‘tishimiz zarur bo‘ladi.

6.Ingliz tilidagi musiqalarni tinglang yoki o‘zingiz qiziqqan kinolarni ingliz tilida tomosha qiling!

Ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishni oshiruvchi usullardan biri – bu biz ingliz tilidagi qo‘shiqlarni ko‘proq tinglash kerak.Chunki bu ingliz tiliga bo‘lgan qiziqish va intilishlarni yanada oshiradi va olgan bilimlarni mustahkamlashga ko‘maklashadi.Kun davomida biror bir uy yumushlarni bajarayotgan paytda yoki dars jarayonida inglizcha qo‘shiqlar tinglansa, juda katta foydasi bor.Ya’ni ular salohiyatga ta’sir qiladi va kognitiv faoliyatni va kommunikativ mahoratni yanada yaxshilaydi.Nafaqat musiqalar, balki, ingliz tilidagi kinolarning ham juda katta yordami tegishi mumkin.Bu esa har bir insonning o‘ziga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, oddiygina tuyilgan bu maslahatlar, juda ko‘p til o‘rganuvchilarning muammosi bo‘lgan – so‘zlashish ko‘nikmasini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi.Bu usullar bizga kutilgan maqsadga yana-da tezroq yetish imkoniyatini yaratib, bunda bizdan faqatgina bu amaliyotni har kuni kundalik hayotimizda qo’llash talab etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Wiki How.
- 2.Sodiqova Sh. Ilmiy ish asoslari. T.: 2017.
- 3.Yusupova Sh. Ilmiy izlanish asoslari. (Oliy o‘quv yurtlarining filolog talabalari uchun uslubiy qo‘llanma)
- 4.Rahmatov A. Ilmiy tadqiqot asoslari. T.: 2008.
- 5.Ne’matov H. Lingvistik tadqiqot metodikasi. B.: 2006.